IJTIMOIY TARMOQLARDAGI TURLI MAVZUDAGI KONTENTLARNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA AXLOQIY TA’SIRINI BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR

Usmanova Z.B
Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23509626

Annotatsiya. *Bugungi raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlar insonlarning axborot olish, muloqot qilish, ta’lim olish, o‘z fikrini ifoda etish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar va o‘smirlarning kundalik hayotida ijtimoiy tarmoqlar muhim axborot-kommunikatsiya muhiti sifatida namoyon bo‘lib, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari, xulq-atvori va ijtimoiy faolligiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli mazmundagi kontentlarning shaxs kamolotiga ta’sirini pedagogik, psixologik va axloqiy jihatdan baholash dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi kontent tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, unga ta’limiy, ilmiy, madaniy, ko‘ngilochar, siyosiy, ijtimoiy, reklama, blogerlik, shaxsiy va boshqa turdagi materiallar kiradi. Ularning har biri foydalanuvchiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin.*

Muammoning murakkabligi shundaki, bir xil kontent turli yoshdagi, turli hayotiy tajriba va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslarga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ijtimoiy tarmoq kontentini faqat uning mazmuniga ko‘ra emas, balki uni qabul qiluvchining yoshi, ehtiyojlari, qiziqishlari, emotsional holati, mediasavodxonligi va ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq holda baholashni talab etiladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy media, kontent, pedagogik ta’sir, psixologik ta’sir, axloqiy ta’sir, yoshlar, o‘smirlar, mediasavodxonlik, raqamli muhit, shaxs rivojlanishi, axloqiy qadriyatlar.*

Abstract. *In today’s digital society, social media is becoming an integral part of the processes of obtaining information, communicating, learning, expressing opinions, and engaging in social interactions. In particular, social media serves as an important information and communication environment in the daily lives of young people and adolescents, exerting a certain influence on their worldview, values, behavior, and social engagement. From this perspective, assessing the impact of various types of content disseminated through social media on personal development from pedagogical, psychological, and ethical perspectives is one of the pressing scientific and pedagogical issues.*

The concept of social media content is broad and encompasses educational, scientific, cultural, entertainment, political, social, advertising, blogging, personal, and other types of materials. Each of these may affect users in different ways.

The complexity of the problem lies in the fact that the same content may have different effects on individuals of different ages and with varying levels of life experience and psychological characteristics. Therefore, social media content should not be assessed solely on the basis of its content; rather, its evaluation should take into account the age, needs, interests, emotional state, media literacy, and social environment of the recipient.

Keywords: *social media, social networks, content, pedagogical impact, psychological impact, ethical impact, youth, adolescents, media literacy, digital environment, personal development, moral values.*

Аннотация. *В современном цифровом обществе социальные сети становятся неотъемлемой частью процессов получения информации, общения, обучения, выражения собственного мнения и осуществления социальных взаимодействий. В частности,*

социальные сети выступают важной информационно-коммуникационной средой в повседневной жизни молодежи и подростков, оказывая определенное влияние на их мировоззрение, ценности, поведение и социальную активность. С этой точки зрения оценка воздействия различных видов контента, распространяемого в социальных сетях, на развитие личности с педагогической, психологической и нравственной позиций является одной из актуальных научно-педагогических проблем. Понятие контента социальных сетей имеет широкое значение и включает образовательные, научные, культурные, развлекательные, политические, социальные, рекламные, блогерские, личные и другие виды материалов. Каждый из них может оказывать различное воздействие на пользователей.

Сложность данной проблемы заключается в том, что один и тот же контент может по-разному воздействовать на лиц разного возраста, имеющих различный жизненный опыт и психологические особенности. Поэтому социальный контент следует оценивать не только исходя из его содержания, но и с учетом возраста, потребностей, интересов, эмоционального состояния, уровня медиаграмотности и социальной среды его воспринимающего.

Ключевые слова: *социальные сети, социальные медиа, контент, педагогическое воздействие, психологическое воздействие, нравственное воздействие, молодежь, подростки, медиаграмотность, цифровая среда, развитие личности, нравственные ценности.*

Bugungi raqamli axborot muhitida ijtimoiy tarmoqlar nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsning ijtimoiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvorini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-pedagogik muhit sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko‘lamining ortishi ularda shakllanayotgan bilim, qarash, e’tiqod va munosabatlarga raqamli kontentlarning ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli mavzudagi kontentlarning shaxs rivojiga ta’sirini aniqlash va baholash zamonaviy pedagogikaning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Shu o‘rinda ijtimoiy tarmoqlarning pedagogik imkoniyatlari, avvalo, ta’lim jarayonini axborot va multimedia resurslari bilan boyitish, mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish, o‘quvchilarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning ijodiy faolligini rag‘batlantirish bilan belgilanadi. Video darslar, elektron kitoblar, ilmiy-ommabop materiallar, infografikalar, interaktiv topshiriqlar va tajriba almashishga mo‘ljallangan platformalar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq ijtimoiy tarmoqlardagi barcha kontentlarni ta’limiy nuqtai nazardan ijobiy baholab bo‘lmaydi albatta. Muhim muammolardan biri - kontentning pedagogik sifatini aniqlash mezonlarining etarlicha tizimlashmaganligidir. Ayrim materiallar tashqi ko‘rinish, qiziqarli sarlavha yoki ommabop shaklga ega bo‘lsa-da, ilmiylik, ishonchlilik, mantiqiylik va yosh xususiyatlariga moslik talablariga javob bermasligi mumkin.

Avvalo kontentlarni pedagogik baholashda quyidagi xususiyatlariga e’tibor qaratish zarur:

mazmunning ilmiy asoslanganligi;

axborotning ishonchliligi va xolisligi;
o‘quvchining yosh va individual xususiyatlariga muvofiqligi;
ta’limiy maqsadlarga mosligi;
tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyati;
ijodkorlik va izlanishga rag‘batlantirishi;
milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirishi;
manipulyativ yoki soxta axborot elementlarining mavjud emasligi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoq kontentining qisqa va tez qabul qilinadigan shaklda taqdim etilishi ba’zan chuqur tahlil qilish va mustaqil fikr yuritish jarayonini cheklashi mumkin. Ayniqsa, qisqa videolar va emotsional mazmundagi postlarga ortiqcha murojaat qilish o‘smir yoshdagi o‘quvchini murakkab masalalarni tizimli o‘rganishdan ko‘ra, tezkor va yuzaki axborotni qabul qilishga odatlantirishi ehtimoli mavjud.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarning pedagogik ta’sirini baholashda kontentning faqat foydali yoki zararli ekanini belgilash emas, balki uning ta’limiy maqsadga muvofiqligi, shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojiga qo‘shayotgan hissasini kompleks tahlil qilish talab etiladi.

Shu o‘rinda pedagogik imkoniyatlari bilan birga bir qancha psixologik ta’sirlarini ham aytib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdar. Ijtimoiy tarmoq kontentining psixologik ta’siri uni qabul qiluvchining hissiy holati, motivatsiyasi, o‘zini baholashi, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvorida namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, o‘smirlik davrida shaxsning o‘zini anglashi va atrofdagilar tomonidan qabul qilinishiga bo‘lgan ehtiyoj kuchli bo‘lgani sababli ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlar unga nisbatan ta’sirchanroq kechishi mumkin.

Psixologik ta’sirni baholashdagi asosiy muammolardan biri –bu kontentning ta’siri har doim ham bevosita va darhol namoyon bo‘lmasligidir. Ayrim kontentlar qisqa muddatda kuchli emotsional reaksiya uyg‘otsa, boshqalari shaxsning qarashlari va xulq-atvoriga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlarning psixologik ta’siri quyidagi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

emotsional ta’sir. Qo‘rquv, xavotir, g‘azab, hayajon yoki aksincha, quvonch va ijobiy kayfiyatni shakllantirishi mumkin;
o‘zini boshqalar bilan taqqoslash;
ideallashtirilgan hayot tarzi, tashqi ko‘rinish yoki muvaffaqiyatlarni namoyish etuvchi kontent shaxsda o‘zidan qoniqmaslik holatini yuzaga keltirishi mumkin;
e’tibor va tasdiqqa ehtiyojning kuchayishi. Layk, izoh va obunachilar soni shaxsiy qadr-qimmatni baholash mezoniga aylanishi xavfi mavjud;
qaramlik elementlarining shakllanishi. Ijtimoiy tarmoqdan uzoqlashishda qiyinchilik, doimiy ravishda xabarlar va yangiliklarni tekshirish, vaqtni nazorat qila olmaslik psixologik muammolarni kuchaytirishi mumkin;

xulq-atvorga ta’sir. Kontentda namoyish etilgan xatti-harakatlarni taqlid qilish, ayniqsa, o‘smirlar orasida kuzatilishi mumkin.

Shu sababli psixologik baholashda kontentning mazmuni bilan bir qatorda uning emotsional intensivligi, takroriyligi, qabul qilish davomiyligi va auditoriyaning psixologik xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim albatta.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy mazmundagi ta’sir alohida ahamiyatga ega. Chunki shaxsning axloqiy qarashlari, qadriyatlari, boshqalarga munosabati va jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlari raqamli muhitda ham shakllanadi. Axloqiy baholash jarayonida kontentning inson qadr-qimmatiga munosabati, shaxsiy daxlsizlikni hurmat qilishi, zo‘ravonlikni targ‘ib etmasligi, kamsitish va haqoratdan xoli bo‘lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mosligi kabi mezonlar muhim hisoblanadi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratish va tarqatish imkoniyatining osonligi axloqiy nazorat masalasini murakkablashtirmoqda. Ayrim foydalanuvchilar tomonidan shaxsiy hayotga oid ma’lumotlarni tarqatish, haqoratli izohlar qoldirish, kiberbulling, yolg‘on axborot tarqatish, nafrat va adovatni kuchaytiruvchi materiallar joylashtirish kabi holatlar uchraydi.

Bunday holatlar shaxsning axloqiy pozitsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, virtual muhitdagi xulq-atvor me’yorlarining buzilishiga ham sabab bo‘ladi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoq kontentini axloqiy nuqtai nazardan baholashda quyidagi mezonlar muhim o‘rin tutadi:

inson sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;
adolat va bag‘rikenglik tamoyillariga rioya etish;
zo‘ravonlik va tajovuzkorlikni targ‘ib qilmaslik;
shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash;
axborot tarqatishda mas’uliyatli munosabatni shakllantirish;
milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiqlik;
boshqa shaxslarni kamsitish va haqorat qilishga yo‘l qo‘ymaslik.

Ijtimoiy tarmoq kontentining pedagogik, psixologik va axloqiy ta’sirini alohida-alohida o‘rganish muayyan natijalar bersa-da, zamonaviy raqamli muhitning murakkab xususiyati ularni o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etishni talab qiladi. Masalan, muayyan video pedagogik jihatdan foydali ma’lumot berishi mumkin, biroq uning taqdim etish uslubi psixologik jihatdan salbiy emotsional ta’sir uyg‘otishi yoki axloqiy jihatdan bahsli g‘oyalarni ilgari surishi mumkin. Aksincha, ijtimoiy mazmundagi emotsional kontent o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni faol fuqarolik pozitsiyasiga undashi va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishi ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, kontent ta’sirini kompleks baholash modelida uch asosiy komponentni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman:

pedagogik mezonlar → bu bilim, tafakkur, mustaqil ta’lim va ijodiy faollikka ta’sir;

psixologik mezonlar → bu emotsional holat, motivatsiya, o‘zini baholash, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarga ta’sir;

axloqiy mezonlar → bu qadriyatlar, mas’uliyat, hurmat, bag‘rikenglik va ijtimoiy me’yorlarga ta’sir.

Bunday yondashuv kontentni faqat «ijobiy» yoki «salbiy» deb baholashdan voz kechib, uning ta’sirini mazmun – auditoriya – qabul qilish sharoiti – ta’sir mexanizmi – natija tizimi asosida o‘rganish imkonini beradi.

Shunday ekan ijtimoiy tarmoqlardagi turli mazmundagi kontentlarning ta’sirini baholash jarayonida qator metodologik va amaliy muammolar mavjud. Bularga:

Birinchidan, kontent hajmining juda kattaligi ularni to‘liq monitoring qilish imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, axborotning tez yangilanishi natijasida muayyan kontentning ta’sirini uzoq muddatli kuzatish murakkablashadi.

Uchinchidan, foydalanuvchilarning individual-psixologik xususiyatlari ta’sir natijalarining bir xil bo‘lmasligiga olib keladi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tarmoq algoritmlari foydalanuvchining qiziqishlariga mos materiallarni qayta-qayta taqdim etishi natijasida ayrim kontentlar ta’siri kuchayishi mumkin.

Beshinchidan, kontentning ishonchliligi va haqqoniyligini aniqlash hamisha oson emas. Ayniqsa, soxta axborot, manipulyativ sarlavhalar va kontekstdan uzilgan ma’lumotlar foydalanuvchida noto‘g‘ri tasavvur hosil qilishi mumkin.

Oltinchidan, ta’sirni baholashning yagona universal mezonlari mavjud emas. Turli yosh, ijtimoiy guruh va ta’lim darajasiga mansub foydalanuvchilarda bir xil kontent turlicha natija berishi mumkin.

Shu sababli ijtimoiy tarmoq kontentining ta’sirini baholashda kontent tahlili, pedagogik kuzatuv, psixologik diagnostika, so‘rovnoma, intervyu, ekspert bahosi va raqamli xulq-atvor ko‘rsatkichlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirini kamaytirishning eng samarali yo‘llaridan biri – o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda media va axborot savodxonligini shakllantirishdir. Bunda ularga axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, manbasini tekshirish, dalil va fikrni farqlash, manipulyativ usullarni aniqlash hamda axborotni mas’uliyat bilan tarqatish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Pedagoglar tomonidan ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlarni ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilish ham muhim. Bunda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga muayyan kontentni mustaqil tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, axloqiy bahosini berish va o‘z munosabatini asoslashga qaratilgan topshiriqlar berish mumkin.

Shuningdek, ota-ona, pedagog va o‘quvchi o‘rtasida raqamli muhitdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Nazoratning haddan tashqari kuchaytirilishi o‘rniga, ongli va mas’uliyatli

foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi turli mavzudagi kontentlar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ta’limiy, psixologik va axloqiy rivojlanishiga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi. Ularning ta’siri mazmunning xususiyati, foydalanuvchining yoshi va individual-psixologik holati, axborotni qabul qilish davomiyligi, raqamli muhit va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy tarmoq kontentlarini baholashdagi asosiy muammo uning ta’sirini bir tomonlama – faqat foydali yoki zararli sifatida belgilash bilan cheklanishdir. Aslida esa bir kontent turli auditoriya uchun turlicha pedagogik, psixologik va axloqiy natija keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois kontent ta’sirini kompleks va mezonlarga asoslangan yondashuv asosida baholash zarur.

Ijtimoiy tarmoq kontentlarining pedagogik ta’sirini baholashda uning ilmiyligi, ta’limiy qimmati, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyati; psixologik ta’sirini baholashda emotsional holat, motivatsiya, o‘zini baholash va xulq-atvorga ta’siri; axloqiy ta’sirini baholashda esa qadriyatlar, mas’uliyat, hurmat, bag‘rikenglik va ijtimoiy me’yorlarga muvofiqligi asosiy mezonlar sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va raqamli etika ko‘nikmalarini shakllantirish ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirini kamaytirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim muassasasi, oila va raqamli muhit o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash, pedagoglarning raqamli kompetentligini oshirish hamda ijtimoiy tarmoq kontentini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ijtimoiy tarmoqlardan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish ularni cheklash yoki inkor etish emas, balki kontentlarni ongli tanlash, uni tanqidiy tahlil qilish va pedagogik, psixologik hamda axloqiy jihatdan baholay oladigan raqamli kompetent yosh avlodni shakllantirish bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Ibraimov va boshqalar. Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.
2. Vohidova N.R. “Milliy qadriyatlar mediakontentida shakl va mazmun masalasi”. Экономика и социум № 10(136) 1-2025.
3. Abdujalilova Sh.A. “Abdurauf Fitratning oila va bola tarbiyasiga oid qarashlari”. Ilmiy-ommabop risola.-T.: “Yozuvchi”. 2002.-70 b.